“KELISHILGAN”

O‘zbekiston Og‘ir atletika federatsiyasi bosh kotibi

_____ O.Maxmudov

“____” _____ 202__- yil

“TASDIQLAYMAN”

O‘zbekiston Respublikasi Sport vazirining o‘rinbosari

_____ Sh.Maxmudov

“____” _____ 202__-yil

Sportning og‘ir atletika turi bo‘yicha 2026-yilda O‘zbekiston chempionatlari va O‘zbekiston kuboklari musobaqalarini o‘tkazish to‘g‘risidagi

NIZOM

Toshkent 2026-yil

Sportning og‘ir atletika turi bo‘yicha
O‘zbekiston chempionati va O‘zbekiston kubogi
musobaqalarini o‘tkazish to‘g‘risidagi

NIZOM

Mazkur Nizom og‘ir atletika sport turi bo‘yicha O‘zbekiston chempionati va O‘zbekiston kubogi musobaqalarining (bundan buyon matnda musobaqa deb yuritiladi) maqsadi, asosiy vazifalari, musobaqalari jarayonini tashkil etishni boshqarish, o‘tkazishga rahbarlik qilish, moliyalashtirish, shuningdek musobaqa chempioni, g‘olibi va sovrindorlarini taqdirlash tartibini belgilaydi.

I-bob. Umumiy qoidalar

1.1 Musobaqa o’tkazish tartibi

1.1.1 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-apreldagi "Mahallalarda yoshlarni ommaviy sportga jalb qilishni yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi PQ-201-sonli hamda 2022-yil 6-iyundagi "Davlat sport-ta'lim muassasalari faoliyatini mutlaqo yangi tizim asosida tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi PQ-268-sonli qarorlariga muvofiq, olimpiya, noolimpiya va milliy sport turlari bo‘yicha uch bosqichli umumrespublika sport musobaqalarini o‘tkazish tizimi joriy etilgan.

Bular quyidagilar:

- Birinchi bosqich — tuman (shahar) musobaqalarida g'oliblikni qo'lga kiritgan sportchilar,
- Ikkinchi bosgich — viloyat musobaqalarida g'oliblikni qo'lga kiritgan sportchilar
- Uchinchi bosqich — respublika (final) musobaqalari.

1.1.2 Musobaqalar Xalqaro og‘ir atletika federatsiyasi (*ingl.t. qisqacha* - IWF - International Weightlifting Federation) tomonidan o‘rnatilgan qoidalarga ko‘ra o‘tkaziladi va hakamlar tomonidan baholanadi. Musobaqani o‘tkazish uchun hakamlar tarkibi O‘zbekiston Respublikasi Sport vazirligi (bundan buyon matnda vazirlik deb ataladi) tomonidan tasdiqlanadi.

1.1.3 Musobaqalarda O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatalarining qarorlariga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga, vazirlik buyrug‘i, mazkur Nizomga hamda boshqa qonun hujjatlariga amal qilinadi.

II-bob. Musobaqaning maqsad va vazifalari

2.1 Musobaqa maqsadi

2.1.1 Musobaqalarning maqsadi bolalar va o‘smirlarni jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug‘ullanishga jalb qilish natijasida sog‘lom turmush tarzini

shakllantirish, og‘ir atletika sport turini aholi o‘rtasida ommalashtirish va uni yanada rivojlantirish, Respublikada og‘ir atletika sport turi bo‘yicha sportchilarning mahorati darajasini oshirishdir.

2.2 Musobaqa vazifasi

2.2.1 Musobaqalarning vazifasi Respublika hududlari va sport tashkilotlarida turli yosh guruhlaridagi og‘ir atletika sport turi bo‘yicha sportchilarning tayyorgarlik darajasini aniqlash va ularni saralab olish, xalqaro musobaqalarda ishtirok etuvchi munosib sportchilarni saralash, O‘zbekiston Respublikasi milliy terma jamoalarini shakllantirish, shuningdek og‘ir atletika sport turi bo‘yicha kuchli sportchilarni aniqlash, trener va hakamlarning malakasini oshirish, o‘tkaziladigan musobaqalar natijalarini tahlil qilishdan iborat.

III-bob. Musobaqani o‘tkazishga rahbarlik

3.1 Musobaqani boshqarish

3.1.1 Musobaqalarni o‘tkazishga umumiy rahbarlikni vazirlik tomonidan hamda bevosita rahbarlik qilish O‘zbekiston og‘ir atletika federatsiyasi (bundan buyon matnda federatsiya deb yuritiladi) tomonidan amalga oshiriladi.

3.1.2 Hakamlar hay’ati ro‘yxati federatsiya tomonidan tasdiqlanadi va musobaqani adolatli va shaffof holda o‘tkazilishi hakamlar hay’ati zimmasiga yuklatiladi.

3.1.3 Musobaqada ishtirok etuvchilarning hujjatlarini qabul qilish va rasmiylashtirish federatsiya tomonidan shakllantirilgan musobaqa mandat komissiyasi tomonidan amalga oshiriladi.

3.1.4 Musobaqa davrida ishtirokchilar va tomoshabinlar xavfsizligini ta’minlash choralarini ko‘rish, tegishli idoralar va tashkilotlar bilan kelishilgan holda federatsiya va federatsiyaning hududiy bo‘limlari (musobaqa qayerda o‘tkazilishiga qarab) tomonidan amalga oshiriladi.

IV-bob. Musobaqani o‘tkazish joyi va muddati

4.1 Musobaqa vaqti

4.1.1 Musobaqalar respublika hududida amaldagi Xalqaro og‘ir atletika federatsiyasi (bundan buyon matnda IWF deb yuritiladi) qoidalari asosida o‘tkaziladi.

4.1.2 Vazirlikning 2026-yil uchun sport tadbirlari taqvim rejasiga asosan, 2026-yil davomida sportning og‘ir atletika turi bo‘yicha Respublika hududida o‘tkazilishi rejalashtiriladigan musobaqalar ro‘yxati mazkur Nizomning 1-ilovasiga muvofiq, sport turining xususiyati va darajasidan kelib chiqqan holda musobaqa dasturlari mazkur Nizomning 2-ilovasiga muvofiq amalga oshiriladi.

4.1.3 Mandat komissiyasi faoliyatini musobaqa o'tadigan joyda musobaqaning birinchi kunidan boshlaydi, ish vaqti 2-ilovada ko'rsatib o'tilgan.

V-bob. Musobaqalarda ishtirok etish shartlari

5.1 Jamoalar

5.1.1 Musobaqalarda Qopaqalpog'iston Respublikasi, Toshkent shahar, viloyatlar va Olimpiya va paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazlar saralash bosqichi chempionatlari va kuboklarida chempion, g'olib va sovrindor bo'lgan sportchilar ishtirok etishiga ruxsat etiladi.

5.1.2 Undan tashqari musobaqalarda Kasaba uyushmalari federatsiyasi, Og'ir atletika mazkazi, O'zbekiston davlat Jismoniy tarbiya va sport universiteti saralash bosqichi musobaqalarida chempion, g'olib va sovrindor bo'lgan sportchilarini qatnashishiga ruxsat beriladi.

5.2 Badal puli

5.2.1 O'zbekiston og'ir atletika federatsiyasining 10 dekabr 2025 yil O'zbekiston og'ir atletika fedratsiyasining 6-sonli Ijroiya Qo'mitasi Yig'ilish bayoniga asosan 2026 yil uchun barcha respublika musobaqalarida ishtirok etish badal puli 150 000 (Bir yuz ellik ming) so'm etib belgilanadi. Barcha ishtirokchilar (konkursdan tashqari sportchilar ham) badal puli Payme ilovasi orqali har bir ishtirokchi uchun alohida amalga oshiriladi. To'lovni tasdiqlovchi chek federatsiya mandat komisyasiga musobaqadan 7 kun oldin jo'natiladi.

5.2.2 Yakuniy startlist e'lon qilinganidan so'ng badal puli qabul qilinmaydi va qaytarilmaydi.

5.2.3 Badal pullari quyidagi maqsadlarda sarflanadi:

- Musobaqalarni yuqori darajada tashkillashtirish uchun;
- Musobaqalarni adolatli o'tkazish uchun (UzNADA bilan hamkorlikda doping testlari olish uchun);
- Hakamlarni rag'batlantirish uchun;
- Hakamlarning malakasini oshirish uchun;
- Federatsiyaning moddiy-texnik bazasini mustaxkamlash uchun.

5.3 Yosh toifalari

5.3.1 Musobaqalarning yosh, vazn toifasi, og'ir atletika sport turi yo'nalishlari IWF tomonidan tasdiqlangan norma va talablarga ko'ra amalga oshiriladi.

5.3.2 Kattalar o'rtasidagi O'zbekiston chempionati va kuboklarida (keyingi o'rinlarda musobaqa deb yuritiladi) ishtirok etish uchun erkak sportchilar 1-kattalar, ayol sportchilar 3-kattalar sport razryadi natijasi bilan musobaqani boshlashi shart.

5.3.3 Yoshlar (U20) o‘rtasida o‘tkaziladigan musobaqalarda ishtirok etish uchun erkak sportchilar 2-kattalar, ayol sportchilar 1-o’smirlar sport razryadi natijasi bilan musobaqani boshlashi shart.

5.3.4 O‘smirlar (U17) o‘rtasida o‘tkaziladigan musobaqalarda o‘smir sportchilar (bolalar) 3-kattalar, o‘smir sportchilar (qizlar) 2-o‘smirlar sport razryadi natijasi bilan musobaqani boshlashlari shart.

5.3.5 Kichik o‘smirlar (U15) o‘rtasida o‘tkaziladigan musobaqalarda kichik o’smir (bolalar) 2-o‘smirlar sport razryadi natijasi bilan musobaqani boshlashlari shart. Kichik o’smir sportchilar (qizlar) uchun sport razryadi

№	Yosh toifasi	Tug’ilgan yil	Erkaklar	Ayollar
			Razryad	
1	Kattalar	2011 va katta	I kattalar	III kattalar
2	Yoshlar (U20)	2011 – 2006	II kattalar	I o’smirlar
3	O‘smirlar (U17)	2013-2009	III kattalar	II o‘smirlar
4	Kichik o‘smirlar (U15)	2011 va undan kichik	II o‘smirlar	-

5.2 Musobaqa hakamlari

5.2.1 Barcha Respublika musobaqalarida sport hakami, uchinchi, ikkinchi, birinchi va milliy toifali hakamlar ishtrok etadi. Musobaqalarning hakamlari, tegishli mutaxassislar, tibbiyot xodimlari, musobaqa hakamlari va ishchi xodimlarining tarkibi 3-ilovada ko‘rsatib o‘tilgan. O’zbekiston og‘ir atletika federatsiyasining O’zbekiston og’ir atletika fedratsiyasining 6-sonli Ijroiya Qo’mitasi Yig‘ilish bayoniga asosan Hakamlar musobaqada ishtirok etishi uchun feratsiyaning hududlardagi bo’limlari tomonidan tasdiqlangan talabnomani Respublika federatsiyasi elektron pochtasiga musobaqadan 40 kun oldin yuborishi shart. Yuborilgan talabnomalar asosida hakamlarning ro‘yxat shakillantiriladi va ularga onlayn testdan o’tish uchun ruxsat beriladi. Hakamlar uchun onlayn test federatsiyaning ramiy (u-entry.uz) saytida tuziladi va musobaqadan 14 kun oldin o’tkaziladi. Musobaqa bosh hakami, uning o‘rinbosari, musobaqa kotibi va musobaqa sistemasini boshqaruvchi hodimlar testda o’tishi talab etilmaydi.

5.2.2 Hakamlar uchun test musobaqa bosh hakami, uning o’rinbosari va musobaqa kotibi tomonidan tashkillashtiriladi va Xalqaro Og’ir atletika fedearatsiyasi musobaqa o’tkazish qonun qoidalari asosida tuzilgan yopiq savollardan iborat bo’ladi. Imtihon shaffofligini ta`minlash uchun testdan o’tuvchi hakamlar testni boshlashdan oldin zoom platformasida maxsus tashkillashtirilgan yig’ilishga kirishlari va kameralarini yoqishlari shart. Testda 5 ta variantda harbirida 25 ta savol mavjud bo’lib, hakamlar uchun 1 variant tanlab beriladi va test 30 daqiqa davom etadi. Har bir to’g’ri javob uchun 1 bal beriladi va testdan so’ng barcha ishtirokchilar to’plagan ballari asosida jadvalga joylashtiriladi va ularning eng yuridagi 24 tasi saralab olinadi va musobaqada ishtirok etish uchun ruxsat beriladi. Javoblar test tugashi bilan zoom platformasi yig’ilishida e’lon qilinadi. Agar testlar javobi teng bo’lsa, sarflangan vaqti kamroq hakam tanlanadi.

VI-bob. Musobaqalarni o‘tkazish shartlari va qoidalari

6.1 Asosiy shartlar

6.1.1 Musobaqani o'tkazish shartlari sport turining xususiyati, xalqaro norma va talablardan kelib chiqib belgilanadi. Musobaqaning tegishli tartib va qoidalari 2025-yil 10 dekabr kunidagi og'ir atletika sport turi bo'yicha 38-sonli Trenerlar Kengashining Yig'ilish Bayonida muhokama qilingan va jamoalarning vakillariga yetkazilgan.

6.1.2 O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014 yil 29 iyuldagi 205-son "Ommaviy tadbirlarni tashkil etish va o'tkazish tadbirini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga asosan tashkil etiladi.

6.1.3 Musobaqalarda ishtirok etish uchun terma jamoa tarkibi a'zolari hududiy chempionatlari va kuboklarida ishtirok etib chempion, g'olib va sovrindor bo'lgan sportchilar orasidan shakllantiriladi va ular o'rtasida respublika (final) bosqichi o'tkaziladi.

6.1.4 Musobaqalarda dast va siltab ko'tarish mashqlari orqali o'tkaziladi hamda g'olib va sovrindorlar dast ko'tarish mashqda alohida siltab ko'tarish mashqlarida aniqlanadi;

- Har bir vazn toifasida dast ko'tarish mashqi uchun oltin, kumush va bronza medali topshiriladi;
- Har bir vazn toifasida siltab ko'tarish mashqi uchun oltin, kumush va bronza medali topshiriladi;
- Ikki kurash uchun medal topshirilmadi.

6.1.5 Musobaqalarning o'tkazilishi O'zbekiston Respublikasi Sport vazirligi buyrug'i bilan tasdiqlangan musobaqaning bosh hakami zimmasiga yuklatiladi. Musobaqalar hakamlarining vazifalari IWF qoidalari asosida belgilanadi.

6.1.6 Musobaqalar nizomining tegishli bandlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilgan taqdirda musobaqalarning boshlanishidan 3 kun oldin musobaqa ishtirokchilariga taqdim etiladi.

VII-bob. Musobaqalarda ishtirok etish uchun talabnomalarni topshirish shartlari va o'lchanish marosimi

7.1 Asosiy talablar

7.1.1 Musobaqalarga sport turining xususiyatlaridan kelib chiqib talabnoma (buyurtma)lar Sport vazirning 2024 yil 25 dekabrdagi "Sport vazirligi va uning tizim tashkilotlari faoliyatiga "Sport tadbirlari" axborot tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida" 01/1918-A/F-son buyrug'iga muvofiq "ERP sport" yagona elektron boshqaruv tizimi orqali yuritiladi.

7.1.2 . Respublika musobaqalariga "ERP sport" yagona elektron boshgaruv tizimi bilan paralel ravishda talabnoma (buyurtma)larni tibbiy ko'rik xulosalari bilan taqdim etish shartlari mazkur nizomning 4-ilovasiga muvofiq mandat komissiyasi tomonidan talab etiladi.

7.1.3 Musobaqalarda ishtirok etish uchun sportchilardan quyidagilar talab etiladi:

- Musobaqadan 12 kun oldin onlayn ilk talabnoma to'ldirish;
- Musobaqadan 7 kun oldin mandat varaqasini (u-entry.uz) sayt orqali tasdiqlanadi;
- Musobaqadan 7 kun oldin barcha ishtirokchilarning ishtirok badal puli to'lagani haqida chekni federatsiya pochtasiga jo'natish;
- Musobaqadan 1 kun oldin mandat komissiyasiga saralash musobaqasi tasdiqlangan bayoni asl nusxasi, yakuniy talabnoma (boshqarma va shifokor tomonidan tasdiqlangan bo'lishi shart)

7.2 Ilk talabnoma

7.2.1 Barcha musobaqalarda ilk talabnomada asosiy tarkib sifatida eng ko'p 16 ta (8 ta ayol va 8 ta erkak) sportchi beriladi. Zaxira tarkib sifatida yana 16 ta sportchi (ilk talabnomaga) kiritilishi mumkin. Asosiy va zahira sportchilar soni 32 tadan oshgan talabnomalar qabul qilinmaydi. Asosiy sportchilar 1 vazn toifasida 2 tadan ko'p bo'lmasligi shart.

7.2.2 Barcha musobaqalar uchun ilk talabnomalar federatsiyaning sayti orqali onlayn amalga oshiriladi (u-entry.uz). Ilk talabnomalarni qabul qilish musobaqa boshlanishidan 30 kun oldin boshlanib, 12 kun oldin to'xtatiladi. Ilk talabnomalarga asoslangan musobaqaning ilk startlisti musobaqadan 10 kun oldin jamoalarga internet orqali taqdim etiladi.

7.2.3 Ilk talabnomada quyidagi ma'lumotlar lotin alifbosida ko'rsatiladi:

- Sporchining nomi (familiyasi, ismi) O'zbekiston Respublikasi fuqarolik pasporti yoki ID (O'zbekiston Respublikasi shaxs guvohnomasi)da ko'rsatilganidek yozilishi shart;
- Sportchining jinsi;
- Tug'ilgan yili (sportchining tug'ilgan yili inobatga olinadi);
- Viloyati/hududi;
- Vazn toifasi;
- Boshlash natijasi;
- To'ldirgan shaxs isim familiyasi, telfon raqami, e-pochta manzili.

7.2.4 Ilk talabnoma yubormagan yoki talabnomasi qabul qilinmagan jamoalarning yakuniy talabnomasi qabul qilinmaydi va musobaqada ishtirok etmaydi.

7.2.5 Talabnomalar bilan bog'liq qo'shimcha savollar uchun ushbu +998 97 036 66 00, +998 90 985 74 42 telefon raqamlariga murojaat qilinishi mumkin.

7.3 Mandat yig'ilishi va yakuniy talabnoma

7.3.1 Musobaqaga 7 kun qolganda mandat yig'ilishi online o'tkaziladi.

7.3.2 Mandat varaqasida jamoa trenerlari quyidagi bandlariga o'zgartirish kiritishi mumkin:

- Sportchining yozilgan ism va familiyasiga;
- Sportchining tug'ilgan sanasiga;
- Sportchi ishtirok etadigan vazn toifasiga;
- Sportchi musobaqani boshlaydigan buyurtmasiga (og'irligiga);
- Sportchi musobaqada ishtirok etmasa butunlay olib tashlashi (ustidan chizishi).

7.3.3 Mandat varaqasi faqat asosiy tarkibdan iborat bo'ladi, zaxira tarkib belgilanmaydi. Musobaqada xar bir jamoadan 8 ta ayol va 8 ta erkak sportchilar har bir vazn toifasida 2 tadan ko'p bo'lmagan tartibda ishtirok etadi.

7.3.4 Barcha mandat varaqalari yig'ilib, ishtirokchilar badal pullarini to'llaganlaridan so'ng musobaqaning startlisti (musobaqaga 5 kun qolganda) e'lon qilinadi. Startlistda musobaqaning yakuniny kun tartibi joy olgan bo'ladi.

7.3.5 Agar sportchi uchun mandat varaqasida musobaqaga qatnashish talabi (sportchi sport razryadi)ga teng og'irlik buyurtma berilgan bo'lsa, o'lchanish marosimidan so'ng yoki musobaqa jarayonida buyurtma og'irligini kamaytira olmaydi. Agar sportchi musobaqaga qatnashish talabi (sportchi sport razryadi)ga yigirma (20 kg) kilogramdan kam miqdordagi og'irlik qo'shib buyurtma bersa, o'lchanish marosimida yoki musobaqa jarayonida talabga qo'shgan og'irligi miqdoricha kam buyurtma berishi mumkin.

7.3.6 Yakuniy talabnomaning asl nusxasi musobaqadan bir kun oldin o'tkaziladigan yig'ilishda musobaqa mandat komissiyasiga topshiriladi. Yakuniy talabnoma lotin alifbosida hududiy sport bosh boshqarmasi/vazirligi, musobaqaga yuboruvchi tashkilot hamda shifokor tomonidan muhr bilan tasdiqlangan holda viloyat/hudud saralash musobaqasi bayonnomasi asil nusxasi bilan birga qabul qilinadi. Hududiy sport vazirligi/bosh boshqarmasi tomonidan tasdiqlanmagan yakuniy talabnomalar qabul qilinmaydi. Hududiy saralash musobaqalarida ishtirok etmagan sportchilar yakuniy talabnomadan olib tashlanadi.

7.3.7 Milliy terma jamoaning asosiy tarkibidagi sportchilar hududiy saralash musobaqalarida ishtirok etmagan holda milliy terma jamoa trenerlari tavsiyasiga ko'ra to'g'ridan to'g'ri barcha musobaqalarda ishtirok etish huquqiga ega.

7.3.8 Hududlardan musobaqalarda ishtirok etuvchilar: sportchilar, trenerlar, jamoa shifokori va jamoa hakamidan iborat bo'ladi. Jamoa hakami tashkiliy qo'mita tomonidan tasdiqlangan taqdirda musobaqada rasman hakamlik qilishi mumkin.

7.4 O'lchanish marosimi

7.4.1 Musobaqalarda qatnashadigan barcha sportchilar tarozida o'lchanish jarayonidan o'tishi shart. O'zbekiston og'ir atletika fedratsiyasining 6-sonli Ijroiya Qo'mitasi Yig'ilish bayoniga asosan Tarozida o'lchash ikki bosqichda o'tkaziladi:

- Asosiy o‘lchanish.
- Qayta (taqqoslama) o‘lchash.

7.4.2 Asosiy o‘lchanishni tashkillashtirishga musobaqa hakamlari javobgar hisoblanadi. Asosiy o‘lchanish har bir musobaqa kunidan bir kun oldin o‘tkaziladi va har bir vazn toifasi uchun 1 soat davom etadi. Asosiy o‘lchanish vaqti hammsi bo’lib 1 soat (18:00 dan 19:00 gacha) davom etadi va musobaqa tashkilotchilari va hakamlar hayati tomonidan o‘tish vaqti belgilanadi. Tarozi avval (kun davomida ishtirok etuvchi barcha) erkaklar vazn toifalari uchun alohida xonada (1 soat) va huddi shu tartibda ayollar vazn toifalari uchun alohida xonada tashkillashtiriladi. Asosiy o’lchanish uchun 2 ta tarozi xona tashkillashtiriladi va har xil vazn toifalari ishtirokchilari bir vaqda o’lchanishdan o’tishadi. O‘lchanish marosimi musobaqa kun tartibi bo‘yicha olib boriladi, yani musobaqani boshlanuvchi vazn toifa birinchi bo‘lib o’lchanishdan o‘tadi.

7.4.3 O‘lchanish vaqtida sportchilar quyidagilarni bajarishlari shart:

- Shaxsni tasdiqlovchi xujjat (ID card) olib kelishi,

- Belgilangan vaqt (1 soat) ichida o‘lchanishda o‘tishi,

- Sport kiyimi (borsovka)da o‘lchanishlari.

7.4.4 Agar sportchining vazni rasman belgilangan vazn toifasidan oshsa, sport kiyimining og‘irligini hisobga olish uchun tarozida ko‘rsatilgan vazndan 250 gr. chegirib tashlanadi. Agar sportchining vazni to‘g‘ri kelsa, vazn tarozida ko‘rsatilganidek qayd etiladi.

7.4.5 O‘lchanish marosimi .hakamlar tomonidan maxsus protokolga yozib qo‘yiladi. Protokolda quyidagilar yozib olinadi:

- Sportchi ism familyasi,
- Sportchining jamoasi,
- Sportchining vazni,
- Dast va siltab ko’tarishda ilk urunishlar og’irligi,
- Murabbiy imzosi.

7.4.6 Sportchi yakuniy talabnomada ikki kurash uchun ko‘rsatgan og‘irligidan faqatgina 20 kg kam buyurtma bera oladi. Dast va siltab ko‘tarish mashqlaridagi birinchi urinishlar yig‘indisi musobaqa talabidan kam bo‘lmasligi shart.

7.4.7 Qayta o‘lchash har bir vazn toifa (yoki guruh) musobaqasi tanishtirish marosimidan so‘ng, 10 daqiqalik tayyorgarlik ko‘rish vaqti ichida qura tashlash yo‘li bilan ishtirokchilarning 1/3 (33%) qismi tanlab olish orqali o‘tkaziladi. Har bir vazn toifasidagi sportchilar quyidagi tartibda qayta o‘lshanish uchun tanlab olinadi:

1-4 tadan – 1 ta sportchi
5-7 tadan – 2 ta sportchi

8-10 tadan – 3 ta sportchi
11-13 tadan – 4 ta sporchi
14-16 tadan – 5 ta sporchi
17-19 tadan – 6 ta sporchi

7.4.8 Agar musobaqa guruhida 2 yoki undan ko‘p vazn toifasi qo‘shib o‘tkazilayotgan bo‘lsa, har bir vazn toifasi uchun alohida qura tashlanadi.

7.4.9 Qura tashlash har bir vazn toifadagi ishtirkochilar soniga teng raqamli qog‘oz tanga/kartochkalarni 3 ta jyuri az’olari tanlanishi orqali o‘tkaziladi. Tanga/kartochkalar musobaqa kotibi tomonidan aralashtirilib jurilar oldiga teskari qo‘yiladi hamda tanlashni 1- jyuri boshlab beradi va har bir jyuri 1 ta tanga/karta tanlaydi. Agar tanlangan sportchilar soni 3 tadan ko’p bo’lsa tartib qayta takrorlanadi (yani agar sportchi 4 ta bo’lsa 4- tanga/kartani 1- jyuri tanlaydi). Agar sportchilar soni 1 ta bo’lsa faqat 1- jyuri tanga/karta tanlaydi. Tanlangan tanga/kartochka raqamlari rasmilashtirilib musobaqa kotibi tomonidan qura protokoliga kiritiladi va tayyorgarlik ko’rish joyida o’rnatilgan tarozi oldiga tanlangan raqamli sportchilar navbat bilan chaqirib qayta o’lchanadi (protokol 5-ilovada).

7.4.10 Qayta o’lchanayotgan sportchi sport kiyimi (borsovka)da bo’ladi va unga ishtirok etayotgan vazn toifasidan 3 kg va (borsovka uchun) 250g. ortiqcha chegirma beriladi. Masalan 53 kg vazn toifasi uchun:

Eng ko’pi - 56,250 kg

Eng kami – 49,260 kg (borsofka bilan).

7.4.11 Qayta o’lchanuvchi sportchiga 1 marotaba taroziga chiqish imkoniyati beriladi, agar u belgilangan og’irlikdan (10g aniqlikda) ko’p chiqsa (yoki o’zidan avvalgi vazn toifasidan 10 g ko’p chiqmasa), sportchi musobaqani konkursdan tashqari davom ettiradi. 3 kg chegirma mutloq vazn toifalari Ayollar (+61kg,+77 kg,+86 kg), Erkak (+75kg,+95kg,+110kg) uchun berilmaydi. Mutloq vazn toifasida ishtirok etivchi sportchilar qayta o’lshanishdan o’tish jarayonida vaznlari bitta avvalgi vazn toifasidan (eng kami 10g) ko’p bo’lishi talab etiladi. Masalan +110 kg vazn toifasidan ishtirok etuvchi sportchi qayta o’lchanishda 110.260 kg vaznda bo’lmasa musobaqani konkursdan tashqari davom ettiradi. Qayta o‘lchash tartibini buzgan yoki jarayondan o‘tishdan bosh tortgan sportchilar diskvalifikatsiya qilinadi. Qayta o‘lchanishda sportchilar og‘irligi pratakolga kiritiladi va jyuri a’zolari tomonidan imzolanadi.

VIII-bob. Musobaqalarni moliyalashtirish manbalari

8.1 Musobaqalar o‘tkazilishining moliyalashtirish shartlari:

8.1.1 Musobaqalarning ishtirokchilari – sportchilar va trenerlarning ovqatlanishi, yotoqxona va yo‘l harajatlari safarga yuborgan tashkilotlar tomonidan qoplanadi.

8.1.2 Musobaqalarda ishtirok etuvchi hakamlarning xarajatlari vazirlik tomonidan qoplanadi. Ayrim hollarda federatsiya (uyushma), homiylar va safarga yuboruvchi viloyat terma jamoalari tomonidan qoplanishi mumkin.

8.1.3 Musobaqalarda xizmat qiluvchi xodimlarning xarajatlari federatsiya (yoki vazirlik) tomonidan qoplanadi.

8.1.4 Musobaqalarni moliyalashtirilishi yuzasidan ushbu nizomning moliyalashtirish shartlariga vazirlik tomonidan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilishi mumkin.

IX-bob. Musobaqalar natijalari yuzasidan berilgan murojaatlarni ko'rib chiqish

9.1 Musobaqa natijasi bo'yicha murojaatlar sportchining treneri tomonidan beriladi. Barcha O'zbekiston chempionatlari va Kuboklarida "video-playback", ya'ni, musobaqa jyurilari tomonidan sportchining urinishini qayta ko'rish texnologiyasi qo'llaniladi.

X-bob. Musobaqalarning g'olib va sovrindorlarini taqdirlash

10.1 Musobaqalarning dast va siltab ko'tarish mashqadagi g'olibi va sovrindorlari vazirlik va ayrim hollarda federatsiya tomonidan tasdiqlangan I, II, va III darajali tegishli diplomlar, medallar va esdalik sovg'alar bilan taqdirlanadi(Ikkikurash natijasi taqdirlanmaydi).Taqdirlash marosimi kun davomida barcha musobaqalar yakunlangach, vazn toifalari ketma ketligi bo'yicha kun oxirida taqdirlanadi. Taqdirlash vaqti musobaqa bosh hakami tomonidan (ayrim vaziyatlarda) o'zgartirilishi mumkin.

10.2 Musobaqalarda jamoaviy xisobda g'oliblar: Ayollar va erkaklar jamoalari to'plagan medallar qo'shib xisoblash orqali aniqlanadi.

10.3 Musobaqa g'olibi va sovrindorlari hamda ishtirokchilari federatsiya (yoki homiylar)ning qo'shimcha esdalik sovg'alari bilan mukofotlanishi mumkin.

XI-bob. Yakuniy natijalar tahlili

11.1 Federatsiya o'tkazilgan musobaqalar to'g'risida vazirlik tomonidan tasdiqlangan hisobot shakli bo'yicha vazirlikka musobaqa tugagandan so'ng 3 kun muddat ichida musobaqaning yakuniy natijalari yuzasidan tahliliy ma'lumot taqdim etiladi.

Sport yakkakurashlari bo'yicha
ROSMM direktori **A.Asralxodjaev**

O'zbekiston og'ir atletika federatsiyasi
Hakamlar hay'ati raisi **A.Sharipov**

Sportning og‘ir atletika turi bo‘yicha
O‘zbekiston chempionati va
O‘zbekiston kubogi musobaqalarini
o‘tkazish to‘g‘risida Nizomiga
1-ILOVA

Og‘ir atletika sport turi bo‘yicha musobaqalar ro‘yxati

	Musobaqa nomi	Sana	Shaxar	Ishtirokchilar
	O‘zbekiston chempionati (kattalar)	23-31 mart	Toshkent viloyati, Chirchiq shahri	QQR, viloyatlar va Toshkent shahri hamda barcha OPSTTM, O‘gir atletika markazi, Kasaba uyushmalari federatsiyasi va O‘zDJTSU terma jamoalari
	Vazn toifalar	**Erkaklar: - 60, 65, 70, 75, 85, 95, 110, +110 kg.** **Ayollar:- 49, 53, 57, 61, 69, 77, 86, +86 kg.**		
	O‘zbekiston chempionati U20 (yoshlar)	23-31 mart	Toshkent viloyati, Chirchiq shahri	QQR, viloyatlar va Toshkent shahri hamda barcha OPSTTM, O‘gir atletika markazi, Kasaba uyushmalari federatsiyasi va O‘zDJTSU terma jamoalari
	Vazn toifalar	**Erkaklar: - 60, 65, 70, 75, 85, 95, 110, +110 kg.** **Ayollar:- 49, 53, 57, 61, 69, 77, 86, +86 kg.**		
	O‘zbekiston chempionati U17 (o‘smirlar)	Апрел	Qashqadaryo viloyati, Toshkent viloyati,	QQR, viloyatlar va Toshkent shahri hamda barcha OPSTTM, O‘gir atletika markazi, Kasaba uyushmalari federatsiyasi va O‘zDJTSU terma jamoalari
	Vazn toifalar	**O‘smirlar - 55, 60, 65, 70, 75, 85, 95, +95 kg.** **O‘smir qizlar- 45, 49, 53, 57, 61, 69, 77, +77 kg.**		
	O‘zbekiston chempionati U15 (kichik o‘smirlar)	May	Samarqand viloyati, Toshkent viloyati,	QQR, viloyatlar va Toshkent shahri hamda barcha OPSTTM, O‘gir atletika markazi, Kasaba uyushmalari federatsiyasi va O‘zDJTSU terma

				jamoalari
	Vazn toifalar	**O‘smirlar - 44, 50, 55, 60, 65, 70, 75, +75 kg.** **O‘smir qizlar - 36, 40, 45, 49, 53, 57, 61, +61 kg**		
	O‘zbekiston kubogi U17 (o‘smirlar)	Oktyabr	Surxandaryo viloyati, Toshkent viloyati,	QQR, viloyatlar va Toshkent shahri hamda barcha OPSTTM, O‘gir atletika markazi, Kasaba uyushmalari federatsiyasi va O‘zDJTSU terma jamoalari
	Vazn toifalar	**O‘smirlar - 55, 60, 65, 70, 75, 85, 95, +95 kg.** **O‘smir qizlar- 45, 49, 53, 57, 61, 69, 77, +77 kg.**		
	O‘zbekiston kubogi U15 (kichik o‘smirlar)	Oktyabr	Surxandaryo viloyati, Toshkent viloyati,	QQR, viloyatlar va Toshkent shahri hamda barcha OPSTTM, O‘gir atletika markazi, Kasaba uyushmalari federatsiyasi va O‘zDJTSU terma jamoalari
	Vazn toifalar	**O‘smirlar - 44, 50, 55, 60, 65, 70, 75, +75 kg.** **O‘smir qizlar - 36, 40, 45, 49, 53, 57, 61, +61 kg**		
	O‘zbekiston kubogi (kattalar)	Avgust Sentyabr	Xorazm viloyati, Toshkent shahri,	QQR, viloyatlar va Toshkent shahri hamda barcha OPSTTM, O‘gir atletika markazi, Kasaba uyushmalari federatsiyasi va O‘zDJTSU terma jamoalari
	Vazn toifalar	**Erkaklar: - 60, 65, 70, 75, 85, 95, 110, +110 kg.** **Ayollar:- 49, 53, 57, 61, 69, 77, 86, +86 kg.**		
	O‘zbekiston kubogi U20 (yoshlar)	Sentyabr	Xorazm viloyati, Toshkent viloyati,	QQR, viloyatlar va Toshkent shahri hamda barcha OPSTTM, O‘gir atletika markazi, Kasaba uyushmalari federatsiyasi va O‘zDJTSU terma jamoalari
	Vazn toifalar	**Erkaklar: - 60, 65, 70, 75, 85, 95, 110, +110 kg.** **Ayollar:- 49, 53, 57, 61, 69, 77, 86, +86 kg.**		

Izoh: ushbu 1-ilova jadvalidagi musobaqalar joyi va sanasi o‘zgarishi mumkin

Sportning og‘ir atletika turi bo‘yicha
O‘zbekiston chempionati va
O‘zbekiston kubogi musobaqalarini
o‘tkazish to‘g‘risida Nizomiga
2-ILOVA

Musobaqalar dasturi

№	O‘tkazilish kuni	Bos-qich	Vazn toifasi	Jinsi		O‘tkazilish vaqti	Sportchilar soni
1.	1-kun	Jamoalarning kelish kuni 16:00 mandat yig‘ilishi 17:00 hakamlar yig‘ilishi					
2.	2-kun	1.	kg	Ayollar		10:00	
		2.	kg	Erkaklar		12:00	
		3.	kg	Ayollar		15:00	
		4.	kg	Erkaklar		17:00	
3.	3-kun	1.	kg	Ayollar		10:00	
		2.	kg	Erkaklar		12:00	
		3.	kg	Ayollar		15:00	
		4.	kg	Erkaklar		17:00	
4.	4-kun	1.	kg	Ayollar		10:00	
		2.	kg	Erkaklar		12:00	
		3.	kg	Ayollar		15:00	
		4.	kg	Erkaklar		17:00	
5.	5-kun	1.	kg	Ayollar		10:00	
		2.	kg	Erkaklar		12:00	
		3.	kg	Ayollar		15:00	
		4.	kg	Erkaklar		17:00	
6.	6-kun	1.	kg	Ayollar		10:00	
		2.	kg	Erkaklar		12:00	
		3.	kg	Ayollar		15:00	
		4.	kg	Erkaklar		17:00	
7.	7-kun	1.	kg	Ayollar		10:00	
		2.	kg	Erkaklar		12:00	
		3.	kg	Ayollar		15:00	
		4.	kg	Erkaklar		17:00	
8.	8-kun	Jamoalarning qaytishi.					

Sportning og‘ir atletika turi bo‘yicha
O‘zbekiston chempionati va
O‘zbekiston kubogi musobaqalarini
o‘tkazish to‘g‘risida Nizomiga
3-ILOVA

O‘zbekiston chempionat va O‘zbekiston kubogi musobaqalarida Hakamlar xay’ati soni

№	Vazifalar	Hakamlar hay’ati tarkibi va xizmat qiluvchi shaxslar
1	Bosh hakam	1
2	Bosh hakam o‘rinbosari	1
3	Bosh kotib	1
4	Jyuri	6
5	Hakamlar	24
	Jami:	**33**
1	Komendant	1
2	Kompyuterchi	1
3	Aloqachi	1
4	Shifokor	2
5	Ishchilar	4
	Jami:	9
	Hammasi:	**42**

Sportning og‘ir atletika turi bo‘yicha
O‘zbekiston chempionati va
O‘zbekiston kubogi musobaqalarini
o‘tkazish to‘g‘risida Nizomiga
4-ILOVA

Talabnomalar (buyurtmalar)ning namunasi

“Tasdiqlayman”
O‘zbekiston og‘ir atletika federatsiyasi
hududiy bo‘limi rahbari

_____ F.I.Sh.
“___” _____ 20__ yil

“Kelishildi”
Sport vazirligining hududiy bosh
boshqarmalari rahbarlari

_____ F.I.Sh.
“___” _____ 20__ yil

_____
(hudud nomi, sport turi, musobaqa nomi)

YAKUNIY TALABNOMA (lotin alifbosida)

T/r	Sportchining F.I.Sh.	Tug‘ilgan yili	Vazn toifasi	Ikki kurash natijasi	Shifokor
1.					
2.					
3.					
4.					
5.					
6.					
7.					
8.					
9.					
10.					

Bosh trener _____ (imzo) _____ (F I Sh)

Shifokor _____ (imzo) _____ (F I Sh)

Sportning og‘ir atletika turi bo‘yicha
O‘zbekiston chempionati va
O‘zbekiston kubogi musobaqalarini
o‘tkazish to‘g‘risida Nizomiga
5-ILOVA

(Musobaqa nomi)ning qayta o‘lchanish varaqasi

Sana «___»_____ 20__ Soat __:__

Vazn toifa___
Guruh___
Sportchilar soni _____

	Tanlangan Raqamlar	**Tegishli sportchi isim familiyasi**	**Vazni**	**O‘tdi\O‘tmadi**

Qayta o‘lchanishni
o‘tkazgan jyuri a’zolari Imzo

1. _____ _____
2. _____ _____
3. _____ _____

Qura tashlovchi:

1. _____ _____